

INGLIZ VA O‘ZBEK TILIDA ANTROPOMORFIK METAFORALARNING QIYOSIY TADQIQI

Suyarova Nargiza Yuldoshevna

*Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti,
Fakultetlararo ingliz tili kafedrasi dotsenti
(Uzbekistan)*

Abstract: *This article analyzes the essence, formation factors and semantic foundations of anthropomorphic metaphors from a linguistic and linguocultural perspective. Metaphor is considered as an important expression of human thinking, and within the framework of the anthropocentric approach, anthropomorphic metaphors formed on the basis of the transfer of human body parts, actions and states to other objects are studied. The article also provides a comparative analysis of the cultural and semantic similarities and differences of anthropomorphic metaphors found in the Uzbek and English languages. Along with Aristotle's views on metaphor, the approaches of modern linguists are also considered. This article is of great theoretical and practical importance in using a seme-based approach in the analysis of linguistic metaphors, and through it, showing the differences between lexical and speech metaphors.*

Keywords: *Anthropomorphic metaphor, Types of metaphor, Language and thought, Seme analysis, Linguistic culture, Uzbek language, English language, Comparative linguistics, Cognitive linguistics, Aristotle's theory of metaphor*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada antropomorfik metaforalarning mohiyati, shakllanish omillari va semantik asoslari lingvistik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qilinadi. Metafora inson tafakkurining muhim ifodasi sifatida ko‘rib, undagi antropotsentrik yondashuv doirasida inson tana a‘zolari, harakatlari va holatlarining boshqa predmetlarga ko‘chirilishi asosida hosil bo‘ladigan antropomorfik metaforalar o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada o‘zbek va ingliz tillarida uchraydigan antropomorfik metaforalarning madaniy va semantik o‘xshashliklari va farqlari qiyosiy tahlil qilinadi. Aristotelning metafora haqidagi qarashlari bilan bir qatorda zamonaviy tilshunoslarning yondashuvlari ham ko‘rib chiqilgan. Mazkur maqola lingvistik metafora tahlilida sema asosli yondashuvni*

qo'llash, u orqali lug'aviy va nutqiy metaforalarning farqlanishini ko'rsatishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Antropomorfik metafora, Metafora turlari, Til va tafakkur, Sema tahlili, Lingvomadaniyat, O'zbek tili, Ingliz tili, Qiyosiy tilshunoslik, Kognitiv lingvistika, Aristotelning metafora nazariyasi

Jahon va uzbek tilshunosligida metaforalar antropotsentrik tavsif etilib, kosmomorfik, fitomorfik, teomorfik, zoomorfik, antropomorfik kabi bir qator turlarga bo'lib tadqiq etilmoqda. Antropomorfik metaforalar faqat inson tana a'zolarining ko'chma ma'noda qo'llanilishi antropomorfik metafora sifatida baholanmoqda. Aslida insonga tegishli bo'lgan, ungagina xos bo'lgan barcha narsalar, xususan, barcha tana a'zolar, harakatlar, holatlar, kechinmalar, tuyg'ular boshqa predmetlarga ko'chirilganda sodir bo'layotgan hodisalarni antropomorfik metafora sifatida o'rganish tilshunoslikning eng muhim yo'nalishlaridandir.

O'zbek tilshunosligida antropomorfik metaforani til va madaniyat, til va muloqot, til va ma'naviyat, til va ruhiyat mushtarakligi muammosi o'tkirlashgan bir paytda o'rganish, lingvistik tadqiq qilish, uning lingvomadaniy, kognitiv va sotsiolingvistik tavsifini berish dolzarb muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Metaforani o'rganishning boshlanishi Aristotelga borib taqaladi. Aristotel ta'rifi ancha keng, biroz mavhumroq: "Ko'chma so'z (metafora) narsaga xos bo'lmagan, jinsdan turga, yoki turdan jinsga, yoxud turdan turga ko'chirilgan yoki o'xshatilgan so'zdir"¹⁸.

1. Jinsdan turga ko'chirilgan so'zlarga "Ana mening kemam turibdi" jumlasini misol bo'la oladi. Bu yerda umuman "turibdi" so'zi "langarda turibdi" xususiy ma'nosini anglatadi.

2. Turdan jinsga ko'chirilgan so'zlar. "Minglab shavkatli ishlarni qildi Odissey..." jumlasidagi "minglab" so'zi umuman "ko'plab"ning xususiy holati bo'lgani uchun, bu o'rinda "ko'plab" ma'nosini anglatadi.

3. Turdan turga ko'chirilgan so'zlar. Masalan, "Mis bilan jonni bo'shatib" va "suv zarrasini charchamas mis bilan kesib". Birinchi holda "bo'shatib" so'zi "kesib" ma'nosida, ikkinchi holda "kesib" so'zi "bo'shatib" degan ma'noda kelmoqda.

¹⁸ Aristotel. Poetika. – L.: 1927. – S.39.

Shunday qilib, Aristotel, N.D.Arutyunova, M.Jonson, J.Lakoff va boshqalar kabi mashhur tilshunoslar metaforani o'rganish va uning tildagi o'rni va rolini aniqlashga katta ta'sir ko'rsatdi.

Metafora ko'p qirrali, barcha sohalar uchun ham tadqiqot obyekti bo'la oladi, metafora yorqinlik, obrazlilik, ekspressivlik va emotsionallik mavjudligini nazarda tutadi.

Antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegishli (xos) bo'lgan (tana a'zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora bo'lib, ko'z, oyoq, qo'l, og'iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa kabi leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishidir.

Inson a'zolari va unga bog'liq bo'lgan boshqa hodisalar keyinchalik ko'chishga sabab bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'z dastlab insonning ko'rish a'zosini, undan keyin tabiatda uchraydigan boshqa o'xshash jismlarni ifodalay boshlagan. Uzunlikning ko'zi, ignaning ko'zi, buloqning ko'zi va boshqalar.

Misol. Oshxona oldidagi uch oyoqli stol ... (A.Obidjon)

Ushbu misoldagi ko'chim oyoq so'zi orqali ifodalangan bo'lib, stol-metaforalanayotgan so'z, oyoq – metaforalanayotgan so'z, tema – muvozanatni tiklovchi yoki tirab turuvchi.

- Oyoq – 1) insonga xos narsa;
2) quyida joylashgan;
3) tanani ko'tarib turadi;
4) yurish uchun xoslangan;

semalardan iborat.

Bu semalar qatoridagi 2-3 sema (ko'tarib turuvchi) ko'chim asosini belgilaydi. Chunki stolning oyog'i deyilganda shu ko'tarib turuvchi taxta qismlari tushuniladi. Ana shu o'xshashlik jihatidan ko'chirilgan nomdir.

Bu ko'chim ham narsa – aniq narsa ko'rinishidagi ko'chimidir. Metafora unsurlarining o'zaro munosabatiga ko'ra asos metafora, ochiq, noekspressiv, muntazam, lug'aviy metafora".

1-misol. Oynai jahonning qulog'i burala ... (A.Obidjon)

Bu o'rinda metafora "qulog'i" so'zi orqali hosil qilingan. Quloq – metaforik so'z, oynai jahon – metaforalanayotgan so'z, tema – buraladigan qism. Endi "quloq" so'zini semalarga ajratamiz:

- Quloq – 1) insonga xos narsa;
2) eshitish organi;
3) yuqorida joylashgan;
4) tanaga (boshga) yopishib turadi.

Semalar tarkibidagi 4-sema bir oz oynai jahonga bog'lanishi mumkin. Chunki oynai jahonning qulog'i, ya'ni buraladigan qismi ham unga yopishgan bo'ladi. Shu asosga ko'ra, sema ma'lum ma'noda metafora (ko'chim) asosi bo'lishi mumkin. Quloq aniq narsani ifoda etadi. Shuning uchun bu ko'chim narsa – aniq narsa turdagi ko'chimni tashkil qiladi. Bu ko'chim metafora unsurlarining o'zaro munosabatiga ko'ra asos metafora, ochiq, noekspressiv (dastlab ekspressiv bo'lgan, hozir esa yo'q), muntazam, lug'aviy metaforadir.

Metaforalar ingliz tilidagi eng kuchli vositalardan biri bo'lib, gapiruvchilar va yozuvchilarni g'oyalarini ijodiy va tasviriy tarzda ifodalashga imkon beradi. Metafora – bu biror narsani, odamni yoki holatni boshqa bir narsa bilan taqqoslash orqali tasvirlashning bir usulidir, ammo bu taqqoslashda "kab" yoki "kabi" so'zlari ishlatilmaydi. Metaforalar bir narsani boshqasiga tenglashtirish orqali chuqurroq ma'nolarni, hissiyotlarni ifodalashga yordam beradi va tilni yanada jonli va esda qolarli qiladi.

Quyida ingliz tilida qo'llaniladigan mashhur metaforik iboralarni ko'rib chiqamiz.

1. English: Can you lend me your ear? (Ear, concentration is a property or object to give)

Uzbek: Qulog'inga kiradimi? (Brain is as a container where information can enter into)

Translation word by word: does it enter into your ear?

Mouth, information and Brain

2. English: Hold your tongue (Tongue, patience is a property or object to hold)

Uzbek: Og'zingni ochma (Brain is as a container for information goes through mouth)

Translation word by word: Do not open your mouth

3. English: I made a slip of the tongue (Tongue is a property or object to make a slip)

Uzbek: Og'zimdan chiqib ketdi (Brain is as a container for information goes through mouth)

Translation word by word: It slipped from my mouth

Ear, information and Brain

4. English: I'm all ears

Uzbek: Quloq soldim (Brain is as a container that someone's ear can be put in)

Translation word by word: To put an ear into information

5. English: I put up her feelers

Uzbek: Og'iz soldim (Brain is as a container that someone's mouth, information can be put into)

Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillarida metaforik terminlarning lisoniy tasnifini yoritib berish jarayonida lisoniylashgan va hosilaviyligini yo'qotgan ma'no, lisoniylashgan hosila ma'no va nutqiy hosila ma'nolarni ifodalanishda ko'p ma'nolilikning lison va nutqqa munosabatini belgilab berishda asosiy ahamiyat kasb etadi.

Antropomorfik metaforaning uslubiy imkoniyat va vazifalari o'zbek tilshunosligida tizimli o'rganilgan emas. Metafora ko'p qirrali, barcha sohalar uchun ham tadqiqot obyekti bo'la oladi, ammo ilmiy, ilmiy-ommabop, publitsistik shuningdek so'zlashuv uslubi uchun ham muhim bo'lgan metaforalar badiiy uslubdagi matn va muloqotlar orqali shakllanadi. Shuning uchun ham metaforalarning hosil bo'lishi, shakllanishi, tabaqalanishi, darajalanishi, sohaviylashishi jarayonlari va bajaradigan vazifasi nuqtai nazaridan keng miqyosda sotsiolingvistik o'rganilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Aristotel. Poetika. – L.: 1927. – S.39.
- 2.Teoriya metafori / Obsh. red. N.D. Arutyunovoy, M.A. Jurinskoy. – M.: Progress, 1990.
- 3.Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy dars olish uchun yozilgan dissertatsiya –T., 2000. – B.72
- 4.Suyarova N.Y. Ernest Heminguey asarlarida metaforalarning qo‘llanilishi // «Komparativistikaning dolzarb masalalari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Farg‘ona, 2018.
- 5.Giyasov S. “Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: Автореф. дисс. канд. филол. ... nauk. – Tashkent, 1983.
- 6.Mirtojiyev M. O‘zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010.

